O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI VA TURIZMINI RIVOJLANTIRISH: ILG‘OR XALQARO TAJRIBA ASOSIDA

Sadiqov Tulagan Batirovich
Oriental universiteti
“Biznes va boshqaruv” kafedrasi v.b.dotsenti
sadiqovtulagan@gmail.com

Annotasiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston iqtisodiyoti va turizm sohasini rivojlantirishda ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasidan samarali foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – mamlakatimiz iqtisodiy o‘sishida turizm tarmog‘ining rolini kuchaytirish, xalqaro bozor talablariga javob beradigan boshqaruv mexanizmlarini aniqlash va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ishda qiyosiy-tahliliy, statistik va tizimli yondashuv usullari qo‘llanilgan. Rivojlangan davlatlardagi (Turkiya, BAA, Ispaniya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari) ijobiy tajribalar o‘rganilib, O‘zbekiston uchun turizm klasterlari, davlat-xususiy sheriklik, raqamli texnologiyalar va agroturizm kabi yo‘nalishlarda amaliy chora-tadbirlar taklif etilgan. Xulosa qismida esa sohani barqaror rivojlantirish, investitsion jozibadorlikni oshirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar belgilab berilgan. Maqola iqtisodchilar, turizm mutaxassislari, davlat organlari xodimlari va ushbu sohani tadqiq qiluvchi olimlar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston iqtisodiyoti, turizm sohasi, xalqaro tajriba, iqtisodiy rivojlanish, turizm klasterlari, davlat-xususiy sheriklik, raqobatbardoshlik, barqaror turizm, investitsion jozibadorlik, raqamli texnologiyalar, agroturizm, turistik infratuzilma, xalqaro standartlar.

РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ И ТУРИЗМА УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ПЕРЕДОВОГО МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы эффективного использования передового опыта зарубежных стран в развитии экономики и туристической сферы Узбекистана. Основная цель исследования – усиление роли туристической отрасли в экономическом росте страны, определение механизмов управления, отвечающих требованиям международного рынка, и выработка рекомендаций по их адаптации к местным условиям. В работе применены сравнительно-аналитический, статистический и системный подходы. Изучен положительный опыт развитых государств (Турция, ОАЭ, Испания, страны Юго-Восточной Азии) и предложены практические меры для

Узбекистана в таких направлениях, как туристические кластеры, государственно-частное партнёрство, цифровые технологии и агротуризм. В заключительной части определены стратегические направления устойчивого развития отрасли, повышения инвестиционной привлекательности, укрепления кадрового потенциала и расширения международного сотрудничества. Статья предназначена для экономистов, специалистов в сфере туризма, работников государственных органов и учёных, исследующих данную область.

Ключевые слова: Экономика Узбекистана, туристическая сфера, международный опыт, экономическое развитие, туристические кластеры, государственно-частное партнёрство, конкурентоспособность, устойчивый туризм, инвестиционная привлекательность, цифровые технологии, агротуризм, туристическая инфраструктура, международные стандарты.

DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S ECONOMY AND TOURISM BASED ON ADVANCED INTERNATIONAL EXPERIENCE

Abstract: This article analyzes the issues of effectively utilizing the advanced experience of foreign countries in the development of Uzbekistan’s economy and tourism sector. The main purpose of the study is to strengthen the role of the tourism industry in the country’s economic growth, identify management mechanisms that meet international market requirements, and develop recommendations for adapting them to local conditions. The work employs comparative-analytical, statistical, and systemic approaches. Positive experiences of developed countries (Turkey, the UAE, Spain, and Southeast Asian nations) are examined, and practical measures are proposed for Uzbekistan in areas such as tourism clusters, public-private partnerships, digital technologies, and agrotourism. The concluding section outlines strategic directions for sustainable development of the sector, increasing investment attractiveness, strengthening human resource potential, and expanding international cooperation. The article is intended for economists, tourism professionals, government officials, and scholars researching this field.

Keywords: Uzbekistan’s economy, tourism sector, international experience, economic development, tourism clusters, public-private partnership, competitiveness, sustainable tourism, investment attractiveness, digital technologies, agrotourism, tourism infrastructure, international standards.

Kirish. Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyoti va turizm sohasini rivojlantirishda ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasidan samarali foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – mamlakatimiz iqtisodiy o‘sishida turizm tarmog‘ining rolini kuchaytirish, xalqaro bozor talablariga javob beradigan boshqaruv

mexanizmlarini aniqlash va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ishda qiyosiy-tahliliy, statistik va tizimli yondashuv usullari qo‘llaniladi. Rivojlangan davlatlarning ijobiy tajribalari o‘rganilib, O‘zbekiston uchun turizm klasterlari, davlat-xususiy sheriklik, raqamli texnologiyalar va agroturizm kabi yo‘nalishlarda amaliy chora-tadbirlar taklif etiladi.

So‘nggi yillarda bu borada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2025-yil 20-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadallashtirib rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori sohani tizimli va barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur hujjatlarda turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini amaldagi 3,5 foizdan 2030-yilga borib 7 foizga yetkazish, xorijiy sayyohlar sonini yiliga 10 milliondan 20 milliongacha oshirish, turizm xizmatlari eksportini 6 milliard AQSh dollaridan oshirish kabi ulkan maqsadlar belgilangan.

Amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z samarasini bermoqda. 2025-yilning yanvar–noyabr oylarida O‘zbekistonga 10,7 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, turizm xizmatlari eksporti hajmi 4,4 milliard AQSh dollariga yetdi. Bu ko‘rsatkichlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan mos ravishda 114 foiz va 144 foizga o‘sganligini ko‘rsatadi. Mamlakatimizda 2026-yil boshiga kelib 148,1 ming turizmga oid xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyat ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, 2025-yil 20-noyabrda Turizm qo‘mitasi tarkibida xorijda milliy turistik mahsulotlarni ilgari surish bo‘yicha rais o‘rinbosari lavozimi joriy etilgan hamda qo‘mitaning xorijiy vakolatxonalarini tashkil etish nazarda tutilgan. 2040-yilgacha bo‘lgan uzoq muddatli turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ishlar boshlangan bo‘lib, bu strategiyani ishlab chiqishda axborot va yashil texnologiyalarni joriy etishga hamda rivojlangan turizm bozorlariga ega mamlakatlarning eng yaxshi tajribalarini o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston turizm salohiyatini jahon talablari darajasiga olib chiqish, sohaning raqobatbardoshligini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish kabi masalalar o‘z yechimini kutmoqda. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasini muvaffaqiyatli rivojlantirishda davlat tomonidan qabul qilinadigan strategik hujjatlar, qulay soliq va investitsion muhit, zamonaviy infratuzilma, raqamli texnologiyalarni qo‘llash hamda xalqaro standartlarga mos xizmat ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiya, BAA, Ispaniya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari kabi turizm sohasida katta tajriba to‘plagan davlatlarning muvaffaqiyatli amaliyotlarini

o‘rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish O‘zbekiston uchun muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Globallashuv va xalqaro raqobat kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligi va taraqqiyoti ko‘p jihatdan ularning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv darajasi, tashqi savdo va xizmatlar sohasidagi ochiq siyosati bilan belgilanadi. Yangi O‘zbekiston mustaqillik yillaridan so‘ng iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan, turizm sohasida ham keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqda [1, 3]. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha, “hozirda Jahon savdo tashkilotiga 2026-yilda a’zo bo‘lish bo‘yicha katta qadamlar qo‘yilmoqda” [5]. Ushbu maqsadga erishish O‘zbekiston iqtisodiyotining jahon bozorlariga integratsiyalashuvida muhim bosqich bo‘lib, xususan, turizm xizmatlarining rivojlanishiga yangi imkoniyatlar ochadi. Dunyo tajribasi turizm iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri ekanligini ko‘rsatmoqda [11, 12]. Xalqaro turizm nafaqat mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlaydi, balki investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolaning maqsadi – Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyot va turizmni rivojlantirish istiqbollarini JST talablari va ilg‘or xalqaro tajribalar nuqtai nazaridan tahlil etish, sohaning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekistonning JSTga a’zolik jarayoni va turizm sohasini rivojlantirish masalalari so‘nggi yillarda bir qator ilmiy ishlar va amaliy hisobotlarda o‘z aksini topgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025–2026 yillarga mo‘ljallangan farmonlarida [1, 2, 3] turizm sohasining ulushini oshirish, xorijiy sayyohlar oqimini ko‘paytirish va eksport salohiyatini kengaytirish bo‘yicha aniq maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan. JSTga a’zolik jarayoni bo‘yicha Azizbek O‘runovning [6, 10] intervyulari va hisobotlarida rivojlanayotgan mamlakat maqomining ahamiyati va himoya mexanizmlari tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Dubay iqtisodiy modelida turizm diversifikatsiyaning asosiy vositasi sifatida qaralgan va neftga qaramlikni kamaytirishga erishilgan [11, 12]. Turkiyaning halol turizm va ikki tomonlama hamkorlik tajribasi [13, 14, 15] O‘zbekiston uchun islom mamlakatlari bozoriga chiqishda muhim ahamiyatga ega. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari (Tailand, Malayziya) esa vizasiz rejim, raqamlashtirish va xizmatlar standartlashtirish sohasida ilg‘or tajribaga ega [17]. Ammo mavjud adabiyotlarda JSTga a’zolikning turizm sohasiga bevosita ta’sir mexanizmlari, ayniqsa O‘zbekiston sharoitida, yetarlicha tahlil qilinmagan. Mazkur maqola ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot usullari: Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi:

1. Tizimli tahlil – JST talablari va O‘zbekistonning milliy qonunchiligidagi o‘zgarishlarni solishtirish uchun.
2. Qiyosiy tahlil – Dubay, Turkiya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasini O‘zbekiston bilan taqqoslash.
3. Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish – 2024–2025 yillardagi makroiqtisodiy va turizm ko‘rsatkichlari (YaIM, sayyohlar oqimi, eksport) asosida.
4. Kontent-tahlil – normativ-huquqiy hujjatlar [1, 2, 3, 4] va xalqaro hisobotlar [9, 10, 11, 17] mazmunini o‘rganish.
5. Induksiya va deduksiya – xususiy xalqaro tajribalardan umumiy xulosalar chiqarish va ularni O‘zbekistonga moslashtirish.

Maqolada 2024–2025 yillardagi rasmiy statistika (O‘zbekiston Statistika agentligi, Jahon turizm tashkiloti, Dubay Iqtisodiyoti Departamenti va Turkiya Madaniyat va turizm vazirligi ma’lumotlari) asos qilib olingan.

Tahlil va natijalar

1. JSTga a’zolik jarayoni va iqtisodiy islohotlar

O‘zbekistonning JSTga kirish jarayoni 2023-yildan boshlab sezilarli darajada jadallashdi. 2025-yilga kelib, 28 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi natijasida 59 ta hujjat JST bitimlariga uyg‘unlashtirildi, 2023-yildan buyon moslashtirilgan hujjatlarning umumiy soni 160 tadan oshdi [6, 7]. 2025-yilning dekabrida Yevropa Ittifoqi va Ekvador bilan ikki tomonlama kelishuvlar imzolandi. Prezident huzuridagi vakil Azizbek O‘runovning ma’lum qilishicha, hukumat O‘zbekistonning 2026-yilgacha JSTga a’zo bo‘lishini ma’lum qilgan [6, 10]. 2024 yil yakuniga kelib O‘zbekiston 20 dan ortiq davlat – jumladan, Xitoy, AQSH, Pokiston, Tailand bilan muzokaralarni yakunladi [8, 9, 10].

JSTga a’zolik O‘zbekiston iqtisodiyotida chuqur tizimli o‘zgarishlarni talab etmoqda. Xususan, 2026-yilga kelib xalqaro iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi qonunning yangi tahriri joriy etiladi. Standartlarni uyg‘unlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda: 2026 yil 1 iyuldan to‘qimachilik, elektrotexnika va avtomobilsozlik; 2027 yildan neft-gaz, metallurgiya va qurilish; 2028 yildan energetika va kimyo sanoati [7]. Rivojlanayotgan mamlakat sifatida O‘zbekiston JST bitimlariga muvofiq muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelgan taqdirda iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini himoya qilish huquqini saqlab qoladi [10].

2. Turizm sohasini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari (2030 strategiyasi)

O‘zbekistonda turizm sohasini tizimli rivojlantirish bo‘yicha 2030-yilgacha bo‘lgan strategik hujjatlar ishlab chiqilgan. 2025-yil 18-noyabrdagi PF-217-son Farmon bilan turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini amaldagi 3,5 foizdan 7 foizga yetkazish, xorijiy sayyohlar oqimini 10 milliondan 20 million kishiga

yetkazish, sayyohlik xizmatlari eksportini 6 milliard dollardan oshirish asosiy maqsadlar etib belgilangan [2, 4].

2025 yilning yanvar-iyun oylari davomida mamlakatga 5,3 million nafardan ortiq xorijiy sayyohlar tashrif buyurdi (o‘sish 111 foiz), 2,4 milliard dollar miqdorida turizm xizmatlari eksporti qayd etildi (o‘sish 164 foiz) [3]. 2025 yil aprelidan boshlab O‘zbekiston birinchi marta oyiga 1 milliondan ortiq xorijiy sayyohni qabul qila boshladi. 2025 yilning to‘qqiz oyida turistlar oqimi o‘tgan yilga nisbatan 112,5% ga oshdi [5]. Shu davrda Britaniya (2,6 baravarga), Qatardan (6,2 baravarga), AQSh (3 baravarga), Fransiya (2,9 baravarga) kabi mamlakatlardan kelgan sayyohlar soni keskin ortgan.

3. Ilg‘or xalqaro tajribalar tahlili

Dubay modeli: 2023-yilda Dubay iqtisodiyoti 3,3% ga o‘sdi, turizmning o‘zi esa 20% atrofida hissa qo‘shadi. D33 iqtisodiy dasturi doirasida turizm iqtisodiy o‘sishning asosiy ustuni sifatida qaraladi. 2024-yilda Dubay 18,72 mln xalqaro sayyohni qabul qildi, 2025-yilda esa 19,59 mln (+5%) va mehmonxona bandligi 80,7% ga yetdi [11, 12]. Dubayning muvaffaqiyati O‘zbekistonga turizmni diversifikatsiyaning asosiy vositasi sifatida qarash, uzoq muddatli strategiyalar va infratuzilmaga investitsiyalarni kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Turkiya tajribasi: Turkiya 2024-yilda 62,27 mln sayyohni qabul qilib, 61,1 mlrd dollar daromad olgan (bir sayyoh sarfi o‘rtacha 972 dollar) [13]. O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi hamkorlik memorandumi [15] hamda 2025-yilda O‘zbekistonda birinchi xalqaro “Halol” markazining ish boshlashi [14] muhim ahamiyatga ega. 2026-yilda “Umrah Plus Uzbekistan” tashabbusi ishga tushirildi, bu diniy turizm sohasida yangi imkoniyatlar yaratadi.

Janubi-Sharqiy Osiyo modeli: Tailand, Malayziya turizmda vizasiz rejim, soddalashtirilgan migratsiya siyosati, turistik infratuzilmani kompleks rivojlantirish, xizmatlar standartlashtirilishi va raqamlashtirish sohasida ilg‘or tajribaga ega [17]. O‘zbekiston 2026-yil 1 fevraldan xorijiy fuqarolar uchun QQSni qaytarish tizimini joriy etdi – bu ushbu modelning O‘zbekiston sharoitidagi aksidir.

4. Mavjud muammolar va ularning yechimlari

Tahlillar quyidagi asosiy muammolarni ko‘rsatadi: (a) infratuzilma yetishmovchiligi – ayrim hududlarda mehmonxona bazasi, transport tarmog‘i zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi; (b) xizmatlar sifati va standartlashtirish – JST talablari kontekstida xalqaro normativlarga o‘tish zarur; (c) raqobatbardoshlik – JSTga a’zo bo‘lgandan so‘ng xorijiy kompaniyalar bilan raqobat kuchayadi (JST a’zolarining 144 nafari xorijiy kompaniyalarning turizm sohasiga kirishiga ruxsat bergan); (d) reklama va marketing yetarli emasligi – O‘zbekistonning jahon turizm bozoridagi imiji to‘liq shakllantirilmagan.

Yechimlar sifatida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish (2025–2026 yillarda 59 ta muhim hujjat loyihasi), soliq imtiyozlari (mehmonxona qurish uchun 7 yil muddatga 30 mlrd so‘mgacha imtiyozli kreditlar), raqamlashtirish va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish amalga oshirilmoqda [3, 7].

Xulosa: Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyot va turizmni rivojlantirish istiqbollari JSTga a’zolik va ilg‘or xalqaro tajribalarni qo‘llash bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston 2026-yilga qadar JSTga a’zo bo‘lishni maqsad qilgan va bu yo‘lda 2024–2025 yillarda muhim yutuqlarga erishdi (20 dan ortiq davlat bilan muzokaralar yakunlangan, AQSH va Xitoy bilan kelishuvlar imzolangan). Mamlakatda turizm sohasini 2030-yilgacha rivojlantirishning aniq strategiyasi mavjud bo‘lib, asosiy ko‘rsatkichlar – YaIMda turizm ulushini 3,5% dan 7% gacha, xorijiy sayyohlar sonini 20 million nafarga oshirish – real va erishish mumkin bo‘lgan maqsadlardir.

Dubay, Turkiya va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining tajribalari O‘zbekiston uchun quyidagi saboqlarni beradi: (1) turizmni iqtisodiy diversifikatsiyaning asosiy vositasi sifatida qarash; (2) uzoq muddatli strategiyalar va siyosiy iroda birligi; (3) xalqaro standartlarga o‘tish va xizmatlar sifatini oshirish; (4) halol turizm va madaniy merosga asoslangan turizmni rivojlantirish; (5) raqamlashtirish va innovatsiyalar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- Birinchi tavsiya: JSTga a’zolik jarayonini yakunlash va a’zolikdan keyingi birinchi yillarda rivojlanayotgan mamlakat maqomidan kelib chiqib, muayyan himoya choralarini qo‘llash.
- Ikkinchi tavsiya: hududiy turizm dasturlarini kengaytirish va mahalliy hamjamiyatlarni jalb etish.
- Uchinchi tavsiya: halol turizm va MICE turizm kabi yuqori daromadli yo‘nalishlarga e’tibor qaratish.
- To‘rtinchi tavsiya: ichki turizmni rivojlantirish.
- Beshinchi tavsiya: davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

O‘zbekiston JST talablariga moslashish va ilg‘or xalqaro tajribalarni qo‘llash orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda muhim natijalarga erishish imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.05.2025 y. PF-87-son Farmoni “2025–2026 yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” // lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.11.2025 y. PF-217-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // kadrovik.uz.
4. O‘zbekiston 2030-yilga borib turistlar sonini 20 million kishiga yetkazishni rejalashtirmoqda // anhor.uz, 2025.
5. “Xalqaro ishlab chiqarish zanjirlariga kirmasak, iqtisodiy o‘sish biz kutgandek bo‘lmaydi” – Shavkat Mirziyoyev // xs.uz, 2026.
6. “JSTga a’zolikkacha bo'lgan yo'lning yarmidan o'tdik” — prezident vakili Aziz Urunov bilan suhbat // daryo.uz, 2024.
7. Standartlar yangilanadi: Tadbirkorlikda to'siqlar olib tashlanmoqda // Zamin.uz, 2026.
8. 2026-yilga mo‘ljallangan islohotlar dasturlari va Davlat dasturi loyihalari taqdimot qilindi // president.uz.
9. Progress on Uzbekistan's accession to the World Trade Organization reported // gov.uz, 2026.
10. Azizbek Urunov: Uzbekistan reserves the right to protect certain sectors of the economy in accordance with WTO agreements // dunyo.info, 2026.
11. Dubai plots its course to 2033 as a next-gen destination for global citizens // WiT, 2025.
12. Dubai's Visionary Transformation: A Global Case Study of Economic Diversification, Tourism Boom, and Sustainable Growth in the UAE // Travel And Tour World, 2026.
13. Turkiya 2024 yil yakunlari bo‘yicha turizm hisoboti // Turkiya Madaniyat va turizm vazirligi, 2025.
14. The first “Halal” center with international accreditation opened in Uzbekistan // Zamin.uz, 2025.
15. “Umrah Plus Uzbekistan” Initiative Enhances Turkish Pilgrims Travel Growth // Travel And Tour World, 2026.
16. Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasida turizm sohasida hamkorlik memorandumi imzolandi // yuz.uz, 2025.
17. STRATEGIC DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: REFORMS, DIGITALIZATION, AND SUSTAINABLE DIVERSIFICATION // International Journal, 2026.